QAYUMXO‘JA ALIYEV



Aliyev Qayumxo‘ja (1900-1941) – maorif xodimi. Toshkent viloyat Qo‘yliq mavzeda imom oilasida dunyoga kelgan. Otasi yangi usuldagi o‘zbek maktabi va rus-tuzem maktabida o‘qituvchilik qilib, 1907 yilda vafot etgan. Toshkent shaharidagi Shirinquduq mahallasida yashagan. 1917 yilgacha boshlang‘ich maktablarda o‘qigan. 1919 yilgacha rus-tuzem maktabida hamda madrasada tahsil olgan. 1919 yilda o‘qituvchilar tayyorlash uch oyli kursini tugatgan. 1920-1923 yillarda to‘quvchilik kasbi bilan shug‘ullangan. Mashhur Hojixon qori qorixonasida Qur’onni xatm qilgan. Shokirjon Rahimiy tavsiyasi va eski shahar xalq maorif bo‘limi yo‘llanmasi bilan 1918-1921 yillarda Boku Ishchi fakultetida uch kursni bitirgan. 1927 yilgacha turli maktablarda o‘qituvchi. 1927 yilda Leningradga borganda Muso Begiyev bilan uchrashib, suhbatlashgan. 1928-1930 yillarda xalq maorif bo‘limida maslahatchi va mudir, №1-son pedagogika texnikumida mudir.

Aliyev Qayumxo‘ja 1927 yilgacha firqa a’zosi, firqa tozalovidan so‘ng o‘chirilgan. U 1930 yil 30 iyulda “Narkom pros ishi” bo‘yicha qamoqqa olingan. Ammo aybi to‘la isbotlanmagach, 1931 yilda shartli ravishda uch yilga ozodlikdan mahrum qilingan. 1933 yilda OGPU kollegiyasi tomonidan Obid Saidovni zaharlashda ayblanib, 10 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Sirdaryo viloyat Malik sovxozida surgunni o‘tagan. 1941 yilda qayta sud qilingan va 1941 yil 9 yanvarda 5 yilga mehnat tuzatish lageriga jo‘natilgan. Keyingi taqdiri ma’lum emas.